



O`UK 504.06:37.033:82-1

**SHE`RIYAT ORQALI INSONLARDA EKOLOGIK TARBIYANI
SHAKLLANTIRISH YO`LLARI**

F.Y.Sattarova., U.G'.Salayev., O.Q.Xudarganova

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, katta o`qituvchi

fazilatsattarova@gmail.com

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, o`qituvchi

ulugbek-salayev@mail.ru,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, talaba

xudarganovaoygul34@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada she`riyatning ekologik tarbiyani shakllantirishdagi o`rni, badiiy asarlar orqali inson qalbida tabiatga mehr, ekologik ong va ma`suliyat hissini uyg`otish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ekologik muammolar sharoitida she`riyat orqali yosh avlodda ekologik tarbiyani shakllantirishning samarali usullari ko`rsatib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** she`riyat, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik ma`suliyat

Аннотация: В статье анализируется роль поэзии в формировании экологического образования, а также возможности воспитания любви к природе, экологической сознательности и чувства ответственности в сердце человека посредством произведений искусства. Показаны эффективные методы воспитания экологического воспитания у подрастающего поколения через поэзию на фоне экологических проблем.

Ключевые слова: поэзия, экологическое образование, экологическая культура, экологическое сознание, экологическая ответственность

Abstract: This article analyzes the role of poetry in the formation of ecological education, the possibilities of awakening love for nature, ecological awareness and a sense of responsibility in the human heart through works of art. Effective methods of instilling ecological education in the younger generation through poetry in the face of environmental problems are shown.



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



Key words: poetry, ecological education, ecological culture, ecological awareness, ecological responsibility

Hozirgi kunda ekologik inqiroz davrida insonlarning tabiatga boʻlgan munosabatini oʻzgartirish orqali ekologik muammolarni hal qilish mumkin. Maʼlumotlarga qaraganda tabiat neʼmatlari yildan yilga qisqarmoqda, bundan maʼlumki atrof-muhitni asrash kundan kunga dolzarb masalaga aylanmoqda. Buning uchun avvalo dunyodagi barcha kishilarni ekologik dunyoqarashini oʻzgartirish yaʼni tabiat haqidagi bilimlarini oshirish, tabiat bilan ehtiyotkorona munosabatda boʻlish kerak ekanligini uqtirishdir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ekologik madaniyatni shakllantirishda maʼnaviyat, ong va tarbiyaning birligi haqida alohida urgʻu bergan: “Odamzodning ruhiy dunyosi tabiat bilan uygʻun boʻlsa, jamiyat ham sogʻlom boʻladi”[1]

Ekologik tarbiy albatta oiladan boshlanishi lozim qolaversa maktabgacha taʼlim, maktab taʼlimi, oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyin ham ekologik bilimlar berilishi lozim. Qanchalik ekologik tarbiya va madaniyat shakllansa shunchalik tabiat bilan bogʻliq muammolar kamayib boradi. Ekologik tarbiya va madaniyatni shakllantirishda sheʼriyatning oʻrni ham beqiyosdir. Tabiat mavzusida yaratilgan sheʼrlar inson qalbiga bevosita taʼsir qiluvchi vosita sifatida ekologik qadriyatlarni singdiradi.

Buyuk shoirlarimiz Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning asarlarida tabiat obrazlari orqali inson va muhit oʻrtasidagi uygʻunlik ifodalanadi. Masalan, Erkin Vohidovning “Oʻzbekiston-osmonim musaffo” sheʼrida muhitning pokligi yurtning timsoli sifatida koʻrsatiladi.[2]

Shoirlar tabiatni jonli obrazda koʻrsatish orqali oʻquvchi qalbida muhabbat va maʼsuliyat uygʻotadi. Bu holat oʻquvchilarda ekologik ong va estetika uygʻotishga xizmat qiladi

Ekologik mavzudagi sheʼrlar asosida insho yozish, mushoira oʻtkazish va dramatik sahnalarni qoʻllash orqali oʻquvchilarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish mumkin.[3]

Zamonaviy shoirlar asarlarida chiqindilar, suv muammosi, havo ifloslanishi kabi muammolar sanʼat tilida ifodalanadi. Bu esa ekologik mafkuraning keng tarqalishiga xizmat qiladi.

Sheʼrlar orqali insonlarda atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorlik, goʻzallikka mehr va muhofaza qilish zarurligi shakllantiriladi.



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



Ta`lim muassasalarida ekologik mavzudagi she`rlar asosida tashkil etilgan badiiy kechalar, insholar, sahna ko`rinishlari orqali o`quvchilarda yoki talabalarda ekologik tarbiya berishning samaradorligi ortadi. O`quvchilarning yoki talabalarning o`zlari tomonidan yozilgan ekologik mavzudagi she`rlar ularning ekologik fikrlash darajasini oshiradi.

Tabiat haqidagi she`rlarni ko`proq targ`ibot qilish orqali ham yaxshi natijalarga erishsa bo`ladi. Masalan, bunday she`rlarni tadbirlar o`tkazish orqali yoki she`rni pechat variantini davlat muassasalariga yoki mahalla orqali har bir uyga osib qo`yilsa, bu sh`rlarni o`qigan har bir insonda tabiatga bo`lgan ma`suliyat hissi uyg`onsa ajab emas.

Quyida mualliflardan biri oliygoh talabasi Xudarganova Oygul tomonidan yozilgan tabiat haqida she`rlarni taqdim qilamiz o`ylaymizki bu she`rlarni o`qigan har bir insonda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg`onadi.

O`rmon

O`rmonlarni kesmanglar
Kislorodni to`smanglar
Daraxtlarni kesib siz
Xaddingizdan oshmanglar

Yog`och ko`mir yoqilg`i
Sifatida ishlatmang
O`rmonlarni kesibsiz
Xilma-xillik yo`qotmang.

Chiqindi

Chiqindini tashlamang
Aziz ko`z-u qarog`im
Chiqindini tashlasang
Bo`lar holim-harobim

Buni bilgin azizim,
Chiqindini tashlama
Ko`cha-kuyda yurganda
Ko`ngillarni g`ashlama

Ko`chat ek

Ko`chat eksang bolajon,
Toza bo`lar hammajon
Ko`chat eksang bolajon,
Obod bo`lar hammayon
Nihol eking bobojon,
Bo`lsin nihol hammayon
Gullar eking momojon,
Gullab bitsin barcha yon



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, she`riyat inson qalbiga yo`l topuvchi eng kuchli vositalardan biridir. U orqali insonlar ongida atrof-muhitga nisbatan ma`suliyat hissini uyg`otish, tabiatga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantirish mumkin. Shuning uchun ham ekologik tarbiyada badiiy adabiyot, ayniqsa she`riyatning ahamiyati beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. Toshkent.Ma`naviyat, 2008 yil. 45-46 betlar
2. E.Vohidov. Tanlangan asarlar-T.:2010 yil. 77-78betlar
3. Jo`rayev.S. She`riyat va tabiat obrazlari-T.:O`qituvchi-2011 yil. 62-70 betlar

